

**BIOXILMA-XILLIKNI SAQLASH YO'LIDAGI ISHLARNING
OLIB BORILISHI**

Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li,

Namangan Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchi

E-mail: olimov.islombek92@mail.ru. Tel:97 560 33 99

Аннотация: Ushbu maqolada tabiiy ekologik tizimning tobora tanazzulga uchrab borishi va uni oldini olishga qaratilgan ishlar, biologik xilma-xillikni saqlash va undan foydalanish, tashqi omillar yoki iqlim o'zgarishi natijasida tobora yo'q bo'lib borayotgan o'simliklar, hayvonlarning kamyob turlarini saqlab qolish yo'lida O'zbekistonda olib borilayotgan ishlar samaradorligi, qolaversa bioxilma-xillikni muhofaza etishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Калит so'zlar: Rio-de-Janeyro, Kunming-Monreal, YUNESKO, strategiya, fauna, biosfera, Qizil kitob

**ВЕДЕНИЕ РАБОТЫ ПО СОХРАНЕНИЮ
БИОРАЗНООБРАЗИЯ**

Olimov Islambek Ulugbek ugli,

Namangan State University is an independent researcher

E-mail: olimov.islombek92@mail.ru. Tel:97 560 33 99

Аннотация: В данной статье обсуждаются работы, направленные на предотвращение ухудшения естественной экологической системы, сохранение и использование биологического разнообразия, редких видов растений и животных, которые все чаще исчезают в результате внешних факторов или изменения климата. эффективность природоохранных

усилий в Узбекистане, а также мер, направленных на защиту биоразнообразия.

Ключевые слова: Рио-де-Жанейро, Куньмин-Монреаль, ЮНЕСКО, стратегия, фауна, биосфера, Красная книга.

CONDUCT OF WORK TO PRESERVE BIODIVERSITY

***Abstract:** In this article, the work aimed at preventing the deterioration of the natural ecological system, conservation and use of biological diversity, rare species of plants and animals that are increasingly disappearing as a result of external factors or climate change are discussed. information about the effectiveness of conservation efforts in Uzbekistan, as well as measures aimed at protecting biodiversity.*

***Key words:** Rio de Janeiro, Kunming-Montreal, UNESCO, strategy, fauna, biosphere, Red Book*

Bioxilma-xillikni muhofaza qilish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish bugungi kunning muhim vazifalardan biridir. Bu borada, mamlakatimizda biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta'minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrashi sur'atlarini pasaytirish, hayvonlar va o'simliklarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini qayta tiklash, bioxilma-xillikni saqlab qolish sohasidagi xalqaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

1992 yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Atrof-muhit va rivojlanish" bo'yicha Xalqaro anjumanida "Biologik xilma-xillik to'g'risida Konvensiya" qabul qilingan. Ko'plab muhim vazifalar belgilab berilgan mazkur Konvensiya bugungi kunda

dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Shu munosabat bilan har yili 22 may — Xalqaro biologik xilma-xillik kuni sifatida nishonlanib kelinadi. Bioxilma-xillik to'g'risida Konvensiyaning maqsadi — sayyoramizda bioxilma-xillikni saqlash, uning tarkibiy qismlaridan va genetik resurslaridan barqaror, adolatli va teng foydalanishdir¹.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda barqaror rivojlanish uchun biologik xilma-xillikni saqlab qolishning o'ta muhimligiga alohida ahamiyat bergani holda bir qator xalqaro huquqiy hujjatlarga, shu jumladan, 1995 yilda Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shildi². Respublikamizda biologik xilma-xillikni saqlash va tegishli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish doirasida Global ekologik jamg'arma, Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi, BMT Taraqqiyot Dasturi, BMTning atrof muhit bo'yicha dasturi, YUNESKO, Butunjahon yovvoyi tabiatni muhofaza qilish jamg'armasi, Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha Mixael Zukkov jamg'armasi singari xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilinmoqda. O'zbekiston o'zining biologik xilma-xillik bo'yicha milliy siyosatini BMTning Taraqqiyot dasturi ko'magida Kunming-Monreal global bioxilma-xillik loyahasiga ko'ra muvofiqlashtiradi³.

1998 yil 1 aprelda biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha Birinchi milliy strategiya va Harakatlar rejasi qabul qilingan edi⁴. Shu jihatdan biologik xilma-xillikni saqlash sohasidagi ko'plab loyihalar Global ekologik jamg'arma, Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi, Yovvoyi tabiatni qo'riqlash jahon jamg'armasi va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqaro qo'llab-quvvatlandi.

Ushbu Strategiya doirasida atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha bir qator milliy va mahalliy dasturlar va rejalarga biologik xilma-xillikni saqlash masalalari kiritildi va biologik xilma-xillikni saqlash sohasida qirqqa yaqin xalqaro loyihalar

¹ Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yagi tarixi. O'quv qo'llanma. — T.: 2021. —B.164

² Azimova D.O., Yodgorova D.Sh., Egamberdiyeva L.Sh., Jabborov B.T. Bioxilma-xillik va uning muhofazasi. O'quv qo'llanma. — T.: 2019. —B.8

³ Do'stova M.T., Xo'janiyozova B.X. Bio xilma-xillikning biologik asosi. O'quv qo'llanma. Buxoro.: 2020. —B. 9

⁴ Давлетов С.Р. XX аср иккинчи ярми — XXI аср бошида Ўзбекистондаги экологик вазият ва унинг ижтимоий муаммолари.: Тарих. фан. док. ... дисс. — Тошкент, 2018. —Б 166.

amalgaga oshirildi. Natijada yerlarning tanazzulga uchrashini sekinlashtirishga, cho‘llanish jarayonlarini qisqartirishga, tabiiy resurslardan nobarqaror foydalanishning boshqa salbiy oqibatlarini susaytirishga erishildi.

Erishilgan natijalarga qaramay, tabiiy ekotizimlarga va yovvoyi hayvonlar va o‘simliklar ko‘payishiga salbiy omillarning ta‘siri davom etmoqda. Biologik xilma-xillik komponentlari samarali muhofaza qilinishini davom ettirish uchun tizimli yondashuvni qo‘llash talab qilinadi, ham hayvonlarning o‘zini, ham ular yashash joyini muhofaza qilish bo‘yicha kompleks tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi.

Xususan, bu borada 2019 yil 11 iyunda “2019 — 2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash STRATEGIYASI” qabul qilindi. Mazkur Strategiya ustuvor yo‘nalishlarni, maqsadlar va vazifalarni, rejalashtirishni, ularga samarali erishish usullarini, shuningdek, uzoq muddatli istiqbolga biologik xilma-xillikni saqlash va undan foydalanish sohasida barqaror tizimni shakllantirish va rivojlantirish sohasida davlat siyosati amalga oshirilishi bosqichlarini belgilashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu Bioxilma-xillikni saqlash strategiyasining konsepsiyasi O‘zbekiston rivojlanishning muvozanatli va barqaror shakliga erishishidan, u uzoq muddatli istiqbolda millatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ehtiyojlari bog‘liq bo‘lgan ekotizimlarning asosiy xizmatlarini ta‘minlaydigan bioxilma-xillikni e‘tirof etishi, baholashi va saqlab qolishidan iboratdir.

O‘zbekistonning bioxilma-xilligi hozirgi paytda ma‘lum bo‘lgan 27 mingtaga yaqin turni o‘z ichiga oladi. Ular orasida yuksak o‘simliklar, po‘panaklar, lishayniklar umuman olganda 11 mingtaga yaqin turni tashkil etadi. Fauna turlari — 15,6 mingta turdan ortiq. O‘zbekiston oliy tomirli o‘simliklari endemizmi qariyb 8%. Qadimdan saqlanib qolgan endemiklar endemik turlar umumiy sonining 10 — 12 foizini tashkil etadi⁵.

Hozirgi vaqtda zoologik tadqiqotlarning butun davrida mamlakat hududida ro‘yxatdan o‘tkazilgan turlarni o‘z ichiga oladigan O‘zbekiston umurtqali

⁵ <https://lex.uz/docs/4372839>

hayvonlar faunasi beshta sinfni ifodalaydi va 715 ta turni o'z ichiga oladi. Ulardan 77 tasi baliq turlari, 3 tasi amfibiyalar turlari, 61 tasi sudralib yuruvchilar turlari, 467 tasi qushlar turlari va 107 tasi sut emizuvchilar turlaridir. O'zbekiston va Markaziy Osiyoning endemikasi umurtqali hayvonlarning 53 ta turi va kenja turini ifodalaydi. Sudralib yuruvchilarda endemizm ko'rsatkichi 50 foizga teng, sut emizuvchilar sinfi endemizmi darajasi pastroq — 14% va qushlar sinfi uchun endemiklar soni ko'p emas — 1,7%. Baliqlar orasida endemizm darajasi 50 foizdan ortiqqa yetadi⁶.

Keyingi o'n yillikda tabiatdan jadal foydalanish natijasida O'zbekiston hayvonlarining ayrim turlari antropogen ta'sirga uchradi, shu munosabat bilan ularning areali va soni kamaydi, hayvonlarning ayrim turlari yo'qolib ketish xavfi ostida yoki batamom yo'qoldi. Ko'plab hayvonlar izchil qisqarib bormoqda. Yashash joylarining tanazzulga uchrashi va to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilish eng avvalo yirik yirtqich hayvonlar va tuyoqli sut emizuvchilar hissasiga to'g'ri kelmoqda⁷.

Davlat o'rmon fondi yerlari 11,2 mln gektarni egallaydi, bu respublika umumiy maydonining 25,2 foizini tashkil etadi. Shundan 3,26 mln gektarga yaqini o'rmonlar bilan qoplangan. O'zbekiston o'rmonlari o'zining tabiiy tarkibi, mahsuldorligi va bajariladigan funksiyalariga ko'ra jiddiy ravishda farqlanadi. O'rmonlar asosan qumli cho'llarda — 9,53 mln gektarni, tog'larda — 1,12 mln gektarni, qayirlarda — 0,11 mln gektarni, shuningdek, vohalarda — 0,26 mln gektarni tashkil etadi. 30 ming gektarga yaqinni egallagan to'qayzorlar uchastkalari Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan bo'lib, Amudaryo deltasida to'qayzorlar dastlabki hududining 10 foiziga yaqinni tashkil etadi. Ushbu uchastkalar O'zbekistondagi qolgan barcha to'qayzorlarning 75 foizini va Markaziy Osiyo to'qayzorlarining 20 foizini tashkil etadi⁸.

⁶ Do'stova M.T., Xo'janiyozova B.X. Bio xilma-xillikning biologik asosi. O'quv qo'llanma. Buxoro.: 2020. –B. 5.

⁷ Давлетов С.Р. XX аср иккинчи ярми – XXI аср бошида Ўзбекистондаги экологик вазият ва унинг ижтимоий муаммолари.: Тарих. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. –Б 165.

⁸ <https://lex.uz/docs/4372839>

2019 yilda chop etilgan O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 314 turdagi noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi o‘simliklar va zamburug‘lar, 206 turdagi hayvonlar kiritilgan⁹. O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida qolganlarini saqlab qolish hamda ko‘paytirishdek davrimiz uchun o‘ta dolzarb muammolarni hal etishda O‘zbekistonda qo‘riqxonalar, buyurtmaxonalar va Milliy bog‘lar alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda malakatimizda 7 ta qo‘riqxonalar, 1 ta kompleks landshaft-buyurtmaxona, 2 ta biosfera rezervati, 3 ta milliy tabiiy bog‘, 1 ta «Do‘rmon» milliy bog‘i, 10 ta tabiat yodgorligi, 12 ta buyurtmaxona va Buxoro ixtisoslashtirilgan «Jayron» pitomnigi shuningdek, o‘rmon va o‘rmon ovchilik xo‘jaliklari mavjud¹⁰.

Bioxilma-xillik barqaror saqlanishini ta’minlaydigan muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 13,2 mln gektarga yaqinni tashkil etadi. Ayni vaqtda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni o‘rmon xo‘jaliklari va o‘rmon-ovchilik xo‘jaliklari hisobga olinmaganda 2079,2 ming gektarni yoki mamlakat hududining 4,64 foizini tashkil etadi¹¹.

“So‘nggi bir necha yil davomida O‘zbekiston Orolbo‘yi hududida bir qator keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirdi. Orolning qurib qolgan hududida saksovul va boshqa sho‘rhoklikka chidamli o‘simliklardan iborat 350 ming gektarlik butazorlar barpo etildi. Bunday hududlarning umumiy maydoni hozirgi kunda 700 ming gektarni tashkil etmoqda”¹².

Orol dengizining qurigan tubida o‘rmon-meliorativ ishlarni amalga oshirish yo‘li bilan Orolbo‘yini ekologik sog‘lomlashtirish tadbirlari keyingi davrda keng ko‘lamda olib borilib, oxirgi besh yilda bir million olti yuz ming gektar yerda o‘rmonzorlar barpo etildi¹³.

⁹ <https://old.ekolog.uz/?p=2889>

¹⁰ Янги Ўзбекистон. – Тошкент, 2023, 4 окт.

¹¹ Azimova D.O., Yodgorova D.Sh., Egamberdiyeva L.Sh., Jabborov B.T. Bioxilma-xillik va uning muhofazasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2019. –B.16.

¹² Shavkat Mirziyoyevning Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta’sischi davlatlar rahbarlari majlisidagi nutqi. <https://uzldep.uz/uz/positionparty/171>

¹³ Янги Ўзбекистон. – Тошкент, 2022, 18 фев.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda biologik xilma-xillik saqlab qolinishi va undan barqaror foydalanishni ta'minlashda ushbu soha bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, hayvonot va o'simlik dunyosi ob'yektlari davlat kadastrini va monitoringi yuritish, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish, ekologik turizmni rivojlantirish, biologik xilma-xillikka nisbatan aholining xabardorligi va ekologik madaniyati darajasini oshirish muhim vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yagi tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: 2021. -B.164
2. Azimova D.O., Yodgorova D.Sh., Egamberdiyeva L.Sh., Jabborov B.T. Bioxilma-xillik va uning muhofazasi. O'quv qo'llanma. – T.: 2019. –B.8
3. Do'stova M.T., Xo'janiyozova B.X. Bio xilma-xillikning biologik asosi. O'quv qo'llanma. Buxoro.: 2020. –B. 9
4. Давлетов С.Р. XX аср иккинчи ярми – XXI аср бошида Ўзбекистондаги экологик вазият ва унинг ижтимоий муаммолари.: Тарих. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. –Б 166.
5. Do'stova M.T., Xo'janiyozova B.X. Bio xilma-xillikning biologik asosi. O'quv qo'llanma. Buxoro.: 2020. –B. 5.
6. Azimova D.O., Yodgorova D.Sh., Egamberdiyeva L.Sh., Jabborov B.T. Bioxilma-xillik va uning muhofazasi. O'quv qo'llanma. – T.: 2019. –B.16.
7. Янги Ўзбекистон. – Тошкент, 2022, 18 фев.
8. Shavkat Mirziyoyevning Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari majlisidagi nutqi. <https://uzlidep.uz/uz/positionparty/171>
9. <https://lex.uz/docs/4372839>
10. <https://lex.uz/docs/4372839>
11. <https://old.ekolog.uz/?p=2889>